

MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARI VA XODIMLARINI NUTQINI
RIVOJLANTIRISH

Mamarajabov Said Mamarasul o'g'li

Eshonqulov Bunyod Bobir o'g'li

Ikromov Damir Islomovich

Jamoat Xavfsizligi Universiteti

Annotatsiya: *Til – bu ijtimoiy hodisadir. O‘zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan har bir xalqning ona tili uning milliy o‘ziga xosligi va ma’naviy madaniyatining yorqin ko‘rsatkichidir. Til tafakkur bilan monand bog‘langani holda ongni shakllantiradi. Ushbu maqola harbiy xizmatchi xodimlarining nutqini rivojlantirish to‘g‘risida aytib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *kommunikatsiya, psixolingvistik, bilingvizm, jarayon, tafakkur, nutq, til, harbiy.*

Аннотация: *Язык – это социальное явление. Родной язык каждого народа, проживающего на территории Республики Узбекистан, является ярким показателем его национального самосознания и духовной культуры. Язык формирует разум в сочетании с мыслью. В данной статье речь пойдет о развитии речи военнослужащих.*

Ключевые слова: *общение, психолингвистика, двуязычие, процесс, мышление, речь, язык, военное.*

Abstract: *Language is a social phenomenon. The mother tongue of every nation living in the territory of the Republic of Uzbekistan is a bright indicator of its national identity and spiritual culture. Language forms the mind in conjunction with thought. This article is about the development of the speech of military personnel.*

Key words: *communication, psycholinguistics, bilingualism, process, thinking, speech, language, military.*

KIRISH

Nutq — tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. nutq deganda uning og‘zaki va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya’ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Lingvistik nazariyada nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan mavhum til tushunchasiga hamda ijtimoiy borliqning eng xarakterli ko‘rinishlaridan biridir.

Boshqa odamlar xulq-atvori va faoliyatiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ularga axborot, xabar yetkazishga xizmat qiladigan asl nutq (tashqi nutq), ya'ni gapirish, til belgilarining eshitish a'zolari tomonidan idrok qilinadigan (ovoz yozib oluvchi uskunalar yordamida qayd etiladigan va qayta takrorlanadigan) artikulyasiyasi tarzida yoki ushbu belgilarning yozuvda shartli aks etishi tarzida yuzaga chiqadi. Asl nutq ("tashqi nutq") bilan bir qatorda ichki nutq ham bor. U so'zlovchi ongida bilishga yordam beradigan turli xil masalalarni muhokama qilish va hal etishga qaratiladi. Ichki nutq tashqi nutq asosida, tovush yoki yozuv qo'llanmagan holda, faqat ovozi nutqdagi so'zlar haqidagi aniq tasavvurlar bilan kechadigan ak/shy jarayonlar tarzida amalga oshadi. Yozma nutq og'zaki nutqdan bir qadar shakllanganligi, so'zlarning o'ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi, grammatik jihatdan aniq, lekin murakkab shakllanganligi, og'zaki nutq uchun xos bo'lgan ohang, mimika va qo'l harakatlarining bevosita qo'llana olmasligi bilan farqlanadi. nutqning monologik (qarang Monolog) va dialogi k (qarang Dialog) turlari mavjud. Nutq aloqa-aralashuv vazifasidan tashqari yana boshqa vazifalar, chunonchi, poetik vazifa ham bajarishi mumkin. nutqning alohida ko'rinishi o'qishdir. Har bir kishining nutq individual, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi; vaholonki, asosiy til unsurlari — lug'at tarkibi va grammatik qurilishi yakka shaxslargagina tegishli bo'lmay, umumnikidir, ya'ni muayyan til jamoasiga umuman taalluqyai bo'ladi. Nutq kishi tafakkuri, uning ongi bilan chambarchas bog'liqdir. nutqda kishining o'y-fikrlari shakllanadi va mavjud bo'ladi. nutq tufayli va nutq asosida borliqni umumlashgan holda mavxumiy aks ettirish, individuallik doirasidan chiqib, jamoatchilik mahsuliga aylanadigan mantiqiy tushunchaviy fikrlash mumkin bo'ladi. nutq kishi ruhiyatining boshqa jihatlarini, uning sezgilari, idroki, xotirasi, o'y-hayollari, hissiyoti, irodasi va boshqalarning namoyon bo'lishi va amal qilishida, kishi ongining rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega.

Nutq qo'llanish sohasiga qarab badiiy nutq, ilmiy nutq, rasmiy nutq kabi shakllarga ega bo'ladi. Har qanday shaklda va har qanday holatda ham aniklik, ravonlik, soddalik, ta'sirchanlik nutqning eng muhim belgilari bo'lib qolishi kerak. Til va nutq. Nutqiy faoliyat turlari. Nutqning holati va uning tarkibiy qismlari. Nutq uchun asosiy talablar. Til va nutq Til - bu so'zlar ma'nosiga ega bo'lgan so'zlarni va sintaksisni o'z ichiga olgan belgilar tizimi - bu jumlar quriladigan qoidalar to'plami. Nutq - bu harakatdagi til.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bo'linmadagi harbiy xizmatchilardagi hissiyot, kayfiyat, muammo va baholarni bilish komandirlarga ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tushunishiga yordam berib, uning nutqini boshqalar ruhiyati hamda xulq-

atvoriga ijobiy ta'sir etadigan holatga olib boradi. Bu narsa komandir obro'sini oshiradi.

Axborotni harflar, so'zlar va iboralar vositasida berishga yozma nutq deyiladi. Muloqotning bu turi ogzaki nutqqa qaraganda ancha qiyin. Ruhii holatni, fikrlarni etkazib berish uchun ma'lumot va dalillarni tushunarli, to'liq va izchil bayon etish zarur. Og'zaki nutqda istaganicha takrorlash mumkin, yozma nutqda esa bunday qilib bo'lmaydi. Shuni aytib o'tish kerakki, inson og'zaki nutq mahoratini yozma nutq orqali egallaydi, biroq buning uchun maxsus og'zaki mashg'ulotlarni bajarishi kerak bo'ladi.

Ichki nutq fikran amalga oshirilib, muloqot vazifasini bajarmaydi, ammo tafakkur jarayonini amalga oshirish uchun xizmat qiladi va aqliy faoliyatni shakllantirishning asosi bo'lib hisoblanadi. Ko'pincha birovlariga aytmoqchi bo'lgan gapimizni ichimizda gapirib olamiz. Bunday nutq, asosan axloqiy ruhda bo'lib, o'z xulq-atvorimizni tahlil qilishga va baholashga bag'ishlanadi. Bunday suhbat xayoliy tanqidchi bilan olib boriladi. Yaxshi rivojlangan ichki nutq matnlarni tez o'qish va tushunishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Nutqning deyarli hamma vazifalari va turlari harbiy faoliyatda ishtirok etadi. Ular orqali harbiy xizmatchilar bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bilim va tajribalarini almashadilar. Nutq yordamida komandirlar harbiy xizmatchilar faoliyatlariga rahbarlik qiladilar, ularni o'qitadilar va tarbiyalaydilar, ulardagi aqliy, irodaviy va boshqa sifatlarni rivojlantiradilar.

Harbiy xizmatchilar nutqi ham shakli, ham mazmuniga ko'ra o'zida harbiy hayotni aks ettiradi. Harbiy xizmatning o'ziga xosligi komandirlik nutqini hosil qilgan. Harbiy xizmatchilardagi nutqiy muloqot, shunindek, buyruq, talab va bildiruvlarning tuzilishi nizomlar hamda qo'llanmalar bilan tartibga solinadi. Harbiy xizmatchilar oldida so'zlanadigan tashviqot nutqi ham o'zining shakli va mazmuniga ko'ra ajralib turadi.

Komandirlik nutqi aniqlik, tushunarlilik, qisqaligi mantiqiylik kabi sifatlar bilan ajralib turadi. Buyruqlardagi noaniqlik va mantiqiy noizchiliklar ijrochini chalg'itadi. Shunday buyruqlardan bittasini misol tariqasida keltiraman. Alohida vzvod komandiri shunday buyruq oldi: «Ertalabni soat 6.00 gacha R.daryosidan o'tish joyi hozirlansin...». Qiyinchiliklarga qaramasdan, u o'z harbiy xizmatchilari va mahalliy aholi yordami bilan daryodagi barjalardan 30-40 tonna yuk ko'tarish imkoniyatiga ega bo'lgan parom yig'di. Taxminan soat oltalarda boshliq keldi. U hammasini tekshirib chiqib, qilingan ishlardan qoniqmadi. Uning buyrug'i o'z vaqtida bajarildi, biroq, o'tish joyi deganda ko'priq qurishni nazarda tutgan ekan. U o'z qarorini noananaviy ifodalagan. Uni «ko'priq orqali o'tish joyi» deb ifodalashi kerak edi.

Komandirlik nutqining idrok qilinishi bir qator sharoitlarga bog'liq. Buyruq va talablar qanchalik aniq hamda tushunarli ifodalansa, harbiy xizmatchilar ularni shuncha lik oson va to'liq tushunadilar. Buyruqdagi qisqalik va qat'iylik komandir nigohidagi tashqi xotirjamlik bilan qo'shilib, harbiy xizmatchilarda topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishga nisbatan ishonch uyg'otadi. Shu bilan birgalikda buyruqdagi so'zlarda, ayniqsa, jang sharoitida askar, serjant va ofitserga bo'lgan hurmat o'z ifodasini topishi kerak. Harbiy xizmatchi buyruqni olar ekan, uning ohangida o'ziga nisbatan ishonch va qo'llab-qo'vvallashni his qilishni xohlaydi. Ayniqsa, tajribasiz jangchi bunday daldaga juda muhtoj bo'ladi. Ba'zan, komandir buyruq berayotganda nutq talaffuzida ushbu narsalarni ijrosiga qo'ngildagidek qilib etkaza olmaydi. Odatda, bunday holatda buyruq berib bo'lingandan so'ng komandir o'zidagi askarga nisbatan iliq tuyg'ularni berish usullarini topadi – askarning qo'lini qisib qo'yadi, rag'batlantiruvchi so'zlar aytadi va hokazo. Bunday paytlarda komandir harbiy xizmatchilardagi tajriba, bilim va hokazolarni e'tiborga oladi.

Komandirning obro'si uning so'zlarining ta'sirchanligini yanada oshiradi. Obro'li komandirning buyruq va talablarini askarlar yurakdan qabul qiladilar, bu so'zlar ularga faoliyatining motiviga aylanadi. Komandir nutqini harbiy xizmatchilar to'g'ri idrok qilishlari uchun unga oldindan tayyorgarlik ko'rish, aytaylik, ularda intizomlilikni va boshqa sifatlarni tarbiyalash lozim bo'ladi.

Favqulodda paydo bo'ladigan og'ir vaziyatlarda jangovar topshiriqni bajarish maqsadida ofitser bo'ysunuvchilarga nisbatan o'zining talablarini qat'iy va talabchan shaklda ifodalashi zarur. Har qanday holatda ham og'zaki buyruq berayotganda ehtirosiga berilish yoki shaxsiy tarkib sha'nini xaqorat qilish mumkin emas. Og'zaki buyruqdagi ishonch va qat'iylik ijrochida ham shunday hissiyotni hosil qiladi. Buyruqlar radio orqali berilganda esa u aniq va poyoniga etgan bo'lishi zarur. Ta'limning quyi bosqichidagi kursantlarning komandirlik nutqlarida xatolik va kamchiliklar uchrab turadi: ba'zilari so'zlarning o'rinlarini almashtirishadi, buyruq matnidagi muhim o'rinlarga alohida urg'u bermasdan, bir maromda bayon etiladi yoki juda past tovushda aytiladi.

Komandir targ'ibot nutqi vositasida shaxsiy tarkibga bilimlarni uzatadi, ushbu bilimlarning e'tiqodga aylanishiga, ularda dunyoqarashning shakllanishiga yordam beradi. Bunday nutq shaxs va jamoa kayfiyati, fikrlari, qiziqishlari, xulq-atvori va hissiyotlariga ta'sir etib, ularni o'qitadi hamda tarbiyalaydi. O'z kechinmalarini nutqida namoyon eta olish komandir targ'ibotchilik nutqining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bunday nutq boshqalarga ta'sir etar ekan, uning ishonchliligi yanada oshadi.

Targibotchining nutq ohangida, imo-ishoralari, yuz ifodasi va gavda holatida o'z hissiyotlarini ifodalash nafaqat ma'ruzaning mazmun va vazifalariga, balki, auditoriyaning xususiyatlari, qiziqish, kayfiyat va hokazolariga ham bog'liq bo'ladi.

Badiiy, ijtimoiy-siyosiy va ilmiy asarlar o'qish, radio eshittirishlarini tinglash, badiiy havaskorlik to'garaklarida ishtirok etish, boshqa notiaqlarning nutqlarini tahlil qilish, yozma matnga qaramasdan gapirishga harakat qilish, chet tillarini o'rganish, har turli lug'at va ma'lumotnomalardan foydalanish – bularning hammasi harbiy xizmatchilar nutqini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Nutq ikki turda bo'ladi: ichki nutq va tashqi nutq.

Ovoz chiqarib talaffuz etiladigan nutq tashqi nutq deb ataladi. Lekin, biz o'ylayotgan vaqtimizda ovoz chiqarmasdan ham nutqdan foydalanamiz. Bu nutq ichki nutq deb ataladi. Tashqi nutq yozma va og'zaki bo'ladi.

Nutq quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Nomlash;
2. Ma'lumot uzatish;
3. Ifodalash;
4. Ta'sir o'tkazish.

Harbiy faoliyatga xos nutq shakllariga quyidagilar kiradi:

- komandirlik nutqi;
- targ'ibot va tashviqot nutqi;
- kundalik muloqot nutqi.

Harbiy xizmatchilarda nutqni rivojlantirish yo'llari quyidagilar:

- Jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etish; va so'z boyligini kengaytirish;
- Chet tillarni o'rganish;
- O'z fikrlarini erkin va to'g'ri ifodalashga o'rgatish;
- Nutqni rivojlantirish bo'yicha maxsus mashqlarni bajarish;
- O'z nutqini baholash va nazorat qila olish.

Pedagogning tashqi ko'rinishi, o'zini tutishi, kiyim-boshining ozodaligi, nutq madaniyati va boshqa omillarning hammasi pedagogik texnikaning tarkibiy qismlaridir. Pedagogik jarayonning samaradorligi ulardan mahorat bilan va oqilona foydalana olishga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik texnika tarkibiy jihatdan juda murakkab murakkabdir. Uni shartli ravishda quyidagi ikki guruhga bo'lib, ko'rib chiqish mumkin:

1. Pedagogning o'z xulqini, harakatlarini boshqara olish malakalari. Bunga quyidagilar kiradi:

- o'z harakatlarini boshqarish (mimika, pantomimika);

- his-hayajonlarini, kayfiyatini boshqarish;
- his etish malakalarining rivojlanganligi (yuziga qarab bo'ysunuvchi kayfiyatini, his-hayajonlarini o'qish);
- nutq texnikasi (nafas olish, ovozni to'g'ri qo'yish, diktsiya).

2. Shaxsga va jamoaga ta'sir eta olish malakalari. Ular ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini ochib beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- pedagogik o'qitish texnikasi;
- talablarni qo'ya olish texnikasi;
- intizomni tashkil eta olish texnikasi;
- bo'ysunuvchilarda ertangi kunga ishonch hissini uyg'ota olish qobiliyati;
- kun tartibini tashkil eta olish texnikasi;
- rag'batlantirish va jazolash choralari to'g'ri qo'llay olish malakasi.

Nutq texnikasi fikrni ifoda etish va tinglovchilarga yetkazib berishning asosi bo'lib, quyidagi talablarga rioya qilishni taqozo etadi:

- so'zlarni, jummalarni aniq ifodalash, talaffuz qilish;
- monoton nutqqa yo'l qo'ymaslik;
- jummalarga o'z vaqtida kerakli intonatsiyani berish va h. k.

XULOSA

Tabiat kuchlarini bilish va egallashda juda qisqa vaqt maboynda g'oyat katta muvaffaqiyatlarga erishuvchi odamning hamma boshqa jonzotlar - hayvonlardan farqli tomoni ularda tilning mavjudligidir. O'zining ongi - tili va nutqi bilan inson hamma narsadan ustun turadi. Til jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi kuch va millatning mavjudligini ko'satuvchi belgilardan biri hamdir. Barcha rivojlangan davlatlarda bo'lganidek bizda ham o'z milliy tilimizni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. O'zbek tili bizda davlat tili deb e'lon qilingan va shunga amal qilinmoqda. nutqlarida chet tillarni o'rganishning ahamiyati muhimligini ko'rsatish bilan birga yana shunday deydi: "Ammo shunga alohida urg'u berishimiz zarurki, chet tillarni o'rganish, minba'd ona tilini esdan chiqarish hisobiga bo'lmaligi lozim. O'z fikrini mutloqo muta'qil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalombor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin"1 . Til aloqa vositasi yoki qurolidir, nutq esa aloqa jarayonining o'zidir.

Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy - tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish yoki o'z harakatlarini rivojlantirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ch.R.Nasriddinov «Harbiy psixologiya» Fan nashriyoti, Toshkent 2004 y.
 2. A.Sotib-Oldiev, A.Karimjonov «Harbiy pedagogika» Sharq nashriyoti, Toshkent 2005 y.
 3. Q.A-Sh.Satib-Aldiev «Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari» TDPU nashriyoti, Toshkent 2003 y.
 4. A.S.Abdugodirov , G'.Ahmedov Harbiy xizmat axloqi. O'quv Qo'llanma Sharq nashriyoti, Toshkent 2007 y.
 5. A.Beknazarov, F.Akramova, H.Quvondiqov «Psixodiagnostika» o'quv qo'llanma, O'R MV nashriyoti, Toshkent 2018 y.
 6. Ch.R.Nasriddinov «Suitsid: muammo va echimlar» o'quv-uslubiy qo'llanma, Sharq nashriyoti, Toshkent 2005 y.
 7. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy Nizomlari, Sharq nashriyoti, Toshkent 2018 y.
- Qo'shimcha adabiyotlar
8. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T: O'zbekiston, 2016 y.
 9. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.:O'zbekiston, 2017 y.
 10. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T. O'zbekiston, 2016 y.